

KAM TA'MINLANGAN OILALARNI HIMOYALASHDA IJTIMOIIY ISH

KASBINING O'RNI

Tursunaliyeva E'zoxon Ilxomjon qizi

FarDU o'qituvchisi

Ro'ziboyeva Shahodatxon Abdumalik qizi

FarDU talabalari

Xo'jamberdiyeva Maftunaxon To'liqinjon qizi

FarDU talabalari

Qodirjonova Mujgonabonu Qobiljon qizi

FarDU talabalari

Annotatsiya:

Mazkur maqola kam ta'minlangan oilalarning hayotiy faoliyatini yaxshilash va ularni hayotda o'z o'rnini topishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidadir. Maqolada O'zbekiston Respublikasining kam ta'minlangan oilalarga qaratilayotgan e'tibori va ularning hayotiy faolliyati yaxshilash uchun qilinayotgan ishlar haqida qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kam ta'minlangan oila, aholi guruh qatlamlari, kambag'allik, farovonlik, muammo, ijtimoiy nafaqa, yordam, oila, farmon, chora-tadbirlar.

Insoniyat yaralibdiki, uni ijtimoiy sohadagi muammolar doimo o'ylantirib kelgan. Bu muammolar inson ehtiyojiga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin. Har bir davrda insoniyat doimo mukammal tarzdagi hayotiy farovonlikka intilib kelgan. Chunki insoniyat doimo hech narsaga hech qachon ehtiyoj sezmay yashashni o'zining hayotiy qonuniyatiga allaqachon aylantirib ulgurgan. Ammo farovon yashashni o'z qonuniyatlariga aylantirishning o'zigina kamlik qiladi. Buning uchun, avallo, inson doimiy tarzda o'z ustida ishlashi va harakatda bo'lmog'i lozim. Shundagina o'zining go'zal hayotini qura oladi. Lekin bu hayotiy go'zalikka har kim ham erisha olmaydi. Hozirgi kunda ham uzoq o'tmishda ham kam ta'minlanganlik va kambag'alik muammosi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki xalq farovon hayot kechirsa davlat ham shu darajada yuksaladi. Kambag'alik va kam ta'minlanganlikni oldini olish va bu muammolarga barham berish bugun kun mavzusiga aylanib ulgurgan. Bu muammolar borasida dunyoda ham va O'zbekiston Respublikasida ham samarali loyihalar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbiriq etilmoqda. Dinlar nuqtai nazari bilan qaraydigan bo'lsa bu muammolarga asosan xayriya va ehson tarqatish yo'li bilan yordam berib kelingan. Islom dinida kam ta'minlangan oilalar, kambag'allar va ehtiyojmand aholiga turli xil yordam va ko'mak berish aholinig kundalik vazifasiga aylanib ulgurgan. Qadimgi Misr va Rimda ham

shahar markazlarida kambag'allarga zodagonlar va davlat tomonidan bepul non tarqatishni yo'lga qo'ygan edi. Nasroniylik tarqalgan davrda ijtimoiy masalalar yuzasidan me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. 347-yil Sardukiy mahalliy ibodatxonasida kambag'allarni boqishda ifodalangan ochiq xayriya tizimi yetakchi o'rini egallagan. Rossiyada ijtimoiy himoya tizimi 1701-yilda Pyotr I tomonidan „Tabarruk Patriarx qarorgohida kambag'allar, bemor va qariyalar uyi ochish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilishdan boshladi. XIX asr oxirlariga kelib kambag'allarga, kam ta'minlangan oilalarga va boshqa yordamga muhtojlarga yordam beradigan maxsus tashkilotlar ochilishi jadallik bilan o'sib bordi. 1866-yilda Stokgolmda Homiylik jamoatchilik uyushmasi tuzildi. 1869-yilda Londonda Xayriya jamiyati tuzildi. 1880-yilda Germaniya kongressi tashabbusiga binoan Germaniya kambag'allarga g'amxo'rlik, xayriya-yordam uyushmasiga asos solindi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda kambag'allarga va kam ta'minlanganlarga, yordamga muhtojlarga va boshqa aholining guruh qatlamlariga samarali tarzda yordam berilmoqda. Bu borada bir qancha nufuzli xayriya va homiylik tashkilotlari samarali tarzda yordam bermoqdalar va ishlab kelmoqda. Mamlakatimizda ham ijtimoiy ish sohasi keng miqiyosda jadal sur'atlar ila rivojlanmoqda. Albatta ijtimoiy ish sohasi qachonki rivoj topsa aholi muammolari kamayadi va uning farovonligiga erishiladi. O'zbekiston Respublikasida ham kam ta'minlanganlik va kambag'allik asosiy dolzarb muomolardan biri hisoblanadi. Bu asosiy ikki muammoni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasida bunday aholi guruh qatlamlariga moddiy jihatdan ko'mak berilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarni farovonligini ta'minlash uchun nafaqat moddiy balki madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Bu kabi zarur bilim va ko'nikmalarni olgan oilalar hayotiy farovonlikka erishish uchun olg'a qadam tashlaydilar. Yurtimizda ham bunday muammolarga samarali yechimlar izlanmoqda va dasturga kiritilmoqda. Bunday chora-tadbirlar tizimi O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridanoq boshlab yuborilgan. Xususan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Abdug'aniyevich aholi farovonligini ta'minlash va kam ta'minlangan oilalarga yordam berish maqsadida, 1994-yil 23-avgustda „Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi farmonni ishlab chiqdi. Bu farmon asosini kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlash, ularni hisobga olish, ularni aniqlash, oilaga har oylik moddiy yordam tayinlash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, oilalarga har oylik moddiy yordamni to'lash va boshqa bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. 2012-yil 12-dekabrda „Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Farmonga muvofiq, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishning manzilligini kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi, ko'p bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam ko'rsatish, oilaning shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jalligini yuritish va boshqa masalalar yoritilgan.

Respublikamizda yana kam ta'minlangan oilalarga turli xil yordamlar, uy-joy olish uchun imtiyozlar, turli xil subsidiyalar va imtiyozli kreditlar, oziq-ovqat mahsulotlari berilmoqda va yetkazib berilmoqda. Bunday aholi guruh qatlamlarining nikoh to'ylari, farzandlarining esa sunnat to'ylari o'tkazilib berilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarning og'ir sharoitdagi toifalarga esa homiylar tomonidan bepul uy-joylar qurib berilmoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar samarasi o'laroq ijtimoiy ish sohasida ham qator turli yutuq va muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Jumladan, bolalar nafaqasiga kiritilgan yoshga doir cheklovlarning oshirilishi, nafaqani tayinlashda oiladagi bolalar sonini hisobga olinishi kabi sohada o'zgarishlar ro'y berdi. Bunga qo'shimcha qilgan holda kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarga uy-joy uchun subsidiyalar, yolg'iz keksalar va nogironlarga qaratilayotgan kuchli ijtimoiy himoya buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Lekin davlatimizda ko'rsatilayotgan ijtimoiy va moddiy yordamlar kamchiliklarga ham ega. Kamchiliklarga keladigan bo'lsak, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy yordamning noto'g'ri yoki manzilsiz taqsimlanishiga va ajratilgan mablag'larning fuqarolar ongida boqimandalik odatini shakllantirishi mumkin. Shuning uchun, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek "Xalqimizga baliq emas, qarmoq berish kerak". Darhaqiqat, aholiga tayyor mahsulotni berishdan ko'ra uni tayyorlashni o'rgatish foydaliroqdir. Kambag'allikni qisqartirish uchun kuchli bozor iqtisodiyotini tashkillash, ish o'rinlarni ko'paytirish, ta'lim sohasini yanada samarali rivojlantirish, nazariy bilimlarni emas, ko'proq amaliy bilimlarni samarali tarzda ishlab chiqish lozim. Bu borada davlatimizda juda kuchli islohatlar tashkil etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ijtimoiy ish asoslari. -Toshkent: CHASHMA PRINT, 2010. b- 9.10.11.12 (M.H.G'aniyeva)
2. <https://lex.uz/docs/-804303>
3. <https://lex.uz/docs/-2134701?ONDATE=14.09.2018>
4. Ijtimoiy ish va ta'minotga kirish. -Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2018. (A.V.Vaxabov)\
5. <https://lex.uz/ru/docs/-5572509?ONDATE=12.08.2021%2000>.